

Arthur B. VanGundy, *The Product Improvement Checklist (PICLT)* (Point Pleasant, N.J.: Point Publishing, 1985).

"Creative Group Techniques," *Small Business Report* (September 1984), pp. 52-57.

Dan Koberg and Jim Bagnall, *Universal Traveler* (Los Altos, CA: William Kaufman, Inc., 1974), p.57.

Michael Michalko, *Thinkertoys* (Berkeley, CA: 10 Speed Press, 1992), pp.43-49.

Tony Husch and Linda Foust, *That's a Great Idea*, (Berkeley, CA: 10 Speed Press, 1987).

INSON HAYOTIDA IQTISODIY, IJTIMOIIY, MADANIY VA EKOLOGIK HUQUQLAR

Dauletbaeva Aynur Baxramovna,

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti talabasi*

E-mail:dawletbaevaaynur0@gmail.com

Inson huquqlari – bu insonning davlat bilan munosabatlaridagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy, ekologik sohalardagi imkoniyatlari tavsiflovchi tushuncha. Har bir davlatning asosiy xususiyatlaridan biri inson huquqlarini samarali tarzda amalga oshirish, inson huquqlarini himoya qilishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 54-moddasiga ko‘ra davlatning oliy maqsadi inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash hisoblanadi.

Inson huquq va erkinliklarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

- ❖ universallik
- ❖ tenglik
- ❖ o‘z aro bog‘liqlik
- ❖ kamsitmaslik

Inson huquq va erkinliklari faqat davlatimiz ko‘lamida emas butun dunyo miqyosida himoya qilinadi. Inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash uchun Inson huquqlari bo‘yicha bill qabul qilingan. Bu bill 1948-yil BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yil

tasdiqlangan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakttan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bobi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar deb nomlanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar- insonning yashash sharoitlarini, o'z imkoniyatlaridan foydalanishini, jamiyatdagi iqtisodiy aloqalarini, shuningdek uning ijtimoiy himoyalanganligini belgilaydi.

N.V. Putilo ijtimoiy huquqlarga quyidagicha ta'rif bergan: "Ijtimoiy huquqlar – bu, shaxs o'zi va oilasi uchun yetarli yashash sharoitini yarata olmaganida davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy himoya va ta'minlanishni kafolatlashga bo'lgan huquqlardir".

Madaniy huquqlar- insonning qonun bilan belgilangan va insonning madaniy hamda ilmiy sohalarda o'zini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratadigan inson huquqlari va erkinliklarining majmuidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga muvofiq har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

Har bir inson hayoti davomida qandaydir mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi va tasarruf etishi mumkin. Mulk huquqining o'ziga xosligi mulk huquqi muddatsizdir. Qonunga xilof tarzda shaxsning mol-mulki tortib olinishi, o'zlashtirilishi mumkin emas. Shu jumladan, har bir shaxsning mulk huquqi daxlsizligi ham davlat tomonidan ta'minlanadi. Shuningdek bank operatsiyalari, bankka qo'yilgan omonatlar va hisobvaraqlari haqida sir tutilib, o'zga shaxslarga oshkor qilishi mumkin emas. Bu huquq orqali har kim hech qanday xavfsiz mol-mulkka egalik qilishi, foydalanishi va ta'sarruf etishi mumkin.

Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalaniş huquqiga ega. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi[1].

Mazkur huquq orqali har bir insonning mehnat qilish, ish haqi olish huquqi kafolatlanadi. Har bir shaxs o'zi xohlagan faoliyat bilan shug'ullanishi, o'zi istagan

kasbni tanlashi mumkin. Shuningdek, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan, mehnat qilish uchun qulay sharoitlarga ega bo'lgan joyda, mehnati uchun adolatli haq olishi va qonunda belgilagan tartibda ishsizlikdan himoya qilinishi mumkin. Konstitutsiyamizga yangi kiritilgan eng muhim normalardan biri bu homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ularni mazkur sabablar tufayli ishdan bo'shatish yoki da ularning mehnati uchun to'lanadigan ish haqini kamaytirish qonunga muvofiq taqiqlanadi. Biroq ayollar erkaklarga nisbatan o'rtacha ikki barobar kam ish haqi oladi. Xususan, 2018 yilda erkaklar va ayollar o'rtasidagi tafovut 51 foizni tashkil etgan. Ekspertlar ish haqi bo'yicha gender tafovutni kamaytirish bugungi kundagi sur'atlarda davom etsa, erkaklar va ayollar o'rtasida ushbu masaladagi tenglik ta'minlanishi uchun 108 yil talab qilinadi degan xulosaga kelgan[2].

Ushbu huquq Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktta ham ta'kidlab o'tilgan: Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir kishining adolatli va qulay shart-sharoitga ega bo'lgan mehnat qilish huquqini, jumladan, quyidagilarni ta'minlaydi:

- a) barcha mehnatkashlarga kamida quyidagilarni ta'minlaydigan haq:
 - i) teng qiymatga ega mehnat uchun hech bir tafovutsiz adolatli ish haqi va teng daromad, ayni paytda, jumladan, ayollarga erkaklarnikidan kam bo'lmagan mehnat sharoitiga kafolat berilishi hamda teng mehnat uchun teng haq to'lanishi kerak;
 - ii) mazkur Paktning qarorlariga muvofiq ular va ularning oilalari uchun qoniqarli bo'lgan turmush;
- b) xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beruvchi ish sharoiti;
- c) mehnat staji va malaka asosidagina ishda tegishli yanada yuqoriroq mansablarga ko'tarilish uchun bir xil imkoniyat;
- d) dam olish, bo'sh vaqt imkoniyatining bo'lishi va oqilona cheklangan ish vaqti hamda haq to'lanadigan ta'til, shuningdek bayram kunlari uchun haq[3].

Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantiradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek davlatning asosiy maqsadi inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdir. Davlatimiz fuqarolarning ish bilan ta'minlanishi, ularni ishsizlikdan himoya qilish uchun turli xil choralar ko'radi. Shuningdek,

fuqarolarning kasbga tayyorgarligini va qayta tayyorgarligini tashkillashtiradi va ularni rag'batlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi 44-moddasiga ko'ra sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi.

Ushbu moddaga muvofiq sud qaroridan tashqari hollarda har qanday majburiy mehnat taqiqlanadi. Bolalar mehnatida ularning salomatligiga, xavfsizligiga, tarbiyasiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf tug'diruvchi, ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan mehnat shakllariga ruxsat etilmaydi.

Har kim dam olish huquqiga ega. Yollanib ishlovchilarga dam olish huquqi ish vaqtining davomiyligini, dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlarini, haq to'lanadigan har yilgi mehnat ta'tilini belgilash orqali ta'minlanadi(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 45-moddasi).

Ushbu konstitutsiyaviy norma fuqarolarning dam olish huquqini kafolatlab, uning amalga oshirilish tartibini belgilash uchun maxsus qonunlar qabul qilish zaruratini anglatadi. Shu bois mazkur normaning ijrosiga oid O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi qabul qilingan. Uning XIV bobi "Dam olish vaqti" deb nomlanib, tanaffuslar, dam olish, bayram kunlari va ta'tillar masalasiga bag'ishlangan[4].

Keyingi ijtimoiy huquq bu-har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega. Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas.

Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo'yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 47-moddasiga muvofiq har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega. Hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emas. Uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning qiymati hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi ta'minlanadi. Davlat uy-joy qurilishini rag'batlantiradi va uy-joyga bo'lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi qonun bilan belgilanadi.

Ushbu moddaga muvofiq har kim o'z turar joyiga ega bo'lib, undan sud qaroridan mahrum etilishi mumkin emas, agarda mulkdor mol-mulkdan mahrum etilgan taqdirda ko'rgan zararining qoplanishi ta'minlanadi. O'z o'rnida davlat ham uy-joy qurilishi uchun sharoitlar yaratadi, rag'batlantiradi. Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi esa qonun bilan belgilanadi.

Eng ahamiyatli yana bir ijtimoiy huquq har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralarini ko'radi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Har bir shaxs malakali tibbiy xizmatdan foydalanishi mumkin. Davlat buning uchun har xil choralarni ko'radi. Ushbu moddaga kiritilgan yangi norma bu davlat sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasi fuqarolarning ekologik huquqiga bag'ishlangan. Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralarni ko'radi.

Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi.

Ushbu moddaga kiritilgan eng ahamiyatli normalardan biri bu inklyuziv ta'limning ta'minlanishidir. Ya'ni bunda imkoniyati cheklangan bolalarning ham ta'lim olish huquqi kafolatlanadi.

Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega.

Fuqarolar umumiy o'rta ta'limdan so'ng tanlov asosida oliy ma'lumotli bo'lishi mumkin va bu davlat hisobidan amalga oshiriladi.

Konstitutsiyamizda o'qituvchilarga har qachongidan ko'ra ko'proq e'tibor qaratiladi. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasiga ko'ra har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik huquqlar inson hayotida o'z o'rniga ega bo'lib, uning bekamu-ko'st hayot kechirishi uchun muhimdir. Chunki inson rivojlanishi uchun ta'lim olishi, mehnat qilishi, shuningdek sog'lom bo'lishi kerak. Har bir sanab o'tilgan huquq har birimiz uchun ahamiyati katta va ulardan foydalanish bizning huquqimizdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. <https://lex.uz/docs/-6445145> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. <http://pravacheloveka.uz/oz/news/human-rights-are-the-highest-value> Inson huquqlari bo'yicha Milliy Markaz. Maqola.
3. <https://lex.uz/docs/-2686000> Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro pakt
4. X.N. Safarova, D.A. Anvarova. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. O'quv qo'llanma.T.2023.